

UO‘K: 614.8

**OSCI-UZ DIAGNOSTIK INDEKSINI EMPIRIK VALIDATSIYA
QILISH VA KICHIK KORXONALARDA AMALIY QO‘LLASH
NATIJALARI**

Mustafayev Bilolbek Eshmurod o‘g‘li

«Irrigatsiya va suv muammolari» ilmiy-tadqiqot instituti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistondagi kichik va o‘rta korxonalar uchun ishlab chiqilgan OSCI-UZ diagnostik indeksining empirik validatsiyasi va amaliy qo‘llash natijalari taqdim etilgan. Dala tadqiqoti Toshkent shahri, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi 8 ta korxonada (411 respondent) o‘tkazildi. Indeksning psixometrik xususiyatlari (CFA, Cronbach $\alpha=0,93$, test-retest $r=0,89$) yuqori ishonchlilikni tasdiqladi; OSCI-UZ ko‘rsatkichlari bilan jarohatlanish darajasi o‘rtasida kuchli teskari bog‘liqlik ($r=-0,74$) aniqlandi.

Kalit so‘zlar: OSCI-UZ, empirik validatsiya, konfirmator omil tahlili, ishonchlilik, prediktor validlik, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. OSCI-UZ diagnostik indeksi kichik va o‘rta korxonalarda (KOK) mehnat xavfsizligi madaniyatini yaxlit baholash uchun ishlab chiqilgan. Indeksning amaliy qiymatini asoslash uchun uning ishonchliligi, validligi va real ishlab chiqarish sharoitidagi samaradorligini empirik tekshirish zarur. Ushbu maqolada indeksni validatsiya qilish natijalari va uning KOKlar amaliyotidagi ta’siri tahlil qilinadi.

Metodologiya. Dala tadqiqoti 2024–2025-yillarda Toshkent shahri, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi 8 ta korxonada (jami 607 xodim, 411 respondent, qamrov 67,7%) aralash metodologiya (mixed methods) doirasida o‘tkazildi. Namuna tarkibi: ishlab chiqarish — 4 ta, xizmat ko‘rsatish va logistika — 3 ta, qurilish — 1 ta; 6 ta kichik, 2 ta o‘rta korxona. Indeksning psixometrik xususiyatlari konfirmator omil tahlili (CFA), Cronbach alfa va McDonald omega, test-retest hamda Item Response Theory (IRT) usullari bilan baholandi.

Natijalar. Konfirmator omil tahlili yetti o‘lchovli modelning empirik ma’lumotlarga mos kelishini tasdiqladi (CFI=0,91; RMSEA=0,058). Ichki izchillik koeffitsienti umumiy indeks bo‘yicha Cronbach $\alpha=0,93$, test-retest ishonchliligi $r=0,89$ ni tashkil etdi. Korxonalarning bazaviy OSCI-UZ ballari 50,6 dan 70,0 gacha taqsimlanib, 5 tasi (62,5%) “Proaktiv”, 3 tasi (37,5%) “Hisob-kitobli” darajada baholandi (2-jadval).

2-jadval. Korxonalarning OSCI-UZ natijalari

Korxona / soha	Xodim	OSCI-UZ	Daraja
Samarqand Qurilish Materiallari (i/ch)	156	70,0	Proaktiv
Toshkent Tibbiy Xizmatlar	42	68,1	Proaktiv
Samarqand Metaloplast (i/ch)	127	66,6	Proaktiv
Oltin Qozon Restoran (xizmat)	35	62,8	Proaktiv
Toshkent Logistika Markazi	54	61,0	Proaktiv

ilmiy –amaliy anjuman

Farg'ona Tekstil Servis (i/ch)	67	58,0	Hisob-kitobli
Farg'ona Mebel (i/ch)	78	55,1	Hisob-kitobli
Toshkent Qurilish Servis	48	50,6	Hisob-kitobli

Prediktor validlik tahlili OSCI-UZ indeksi bilan jarohatlanish ko'rsatkichlari o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik ($r=-0,74$; $p=0,014$) mavjudligini ko'rsatdi: indeks qiymati qancha yuqori bo'lsa, jarohatlanish darajasi shuncha past. Barcha korxonalarda eng kuchli o'lchov me'yoriy va huquqiy rioya etilishi, eng zaifi esa hodisalardan o'rganish bo'ldi.

Indeksni amaliy qo'llash davrida korxonalarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi: jarohatlanish holatlari 50–75 foizga kamaydi, xavfli vaziyatlar haqida xabarlar 142–250 foizga oshdi, xodimlar xavfsizlik bilimi 21–33 foizga yaxshilandi. Cross-sectional dizayn sababli bu o'zgarishlar OSCI-UZ bilan bog'liqlik indikatori sifatida talqin qilinadi. Cost-Benefit Analysis modeli o'rtacha 30–50 xodimli KOK uchun birinchi yil ROI ko'rsatkichi 80–150 foiz darajasida bo'lishini ko'rsatdi.

Xulosa. Empirik validatsiya OSCI-UZ indeksining ishonchli, valid va amaliy qo'llanuvchan diagnostik vosita ekanini tasdiqladi. Indeks KOKlarda xavfsizlik madaniyatini monitoring qilish, zaif tomonlarni aniqlash va profilaktik choralarni rejalashtirish imkonini beradi. Kelajakda kattaroq va ko'p mintaqali namunada longitudinal validatsiya tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kines P. et al. Nordic Safety Climate Questionnaire (NOSACQ-50) // Journal of Safety Research. – 2011. – Vol. 42. – P. 271–278.

2. Cronbach L.J. Coefficient alpha and the internal structure of tests // Psychometrika. – 1951. – Vol. 16(3). – P. 297–334.
3. Mustafayev B.E. O‘zbekistondagi KOKlarda mehnat xavfsizligi madaniyatini kompleks baholash: OSCI-UZ ko‘p o‘lchovli indeks tizimi // Ilm-Fan xabarnomasi. – 2026. – B. 182–191.
4. Saidov J., Mustafayev B.E. O‘zbekiston kichik korxonalarida OSCI-UZ diagnostik indeksini qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi // Development of science. – 2026. – № 04. – B. 35–42.